



## TALABALARNI KASB-AMALIY FAOLIYATGA TAYYORLASH JARAYONINING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

*Joldasov I.S.*

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti  
“Tarix” kafedrasida katta o‘qituvchisi*

**Tayanch so‘zlar:** talaba, ta’lim, tarbiya, ijodiy qobiliyat, huquqiy ta’lim, ustoz-shogird.

**Ключевые слова:** студент, образование, подготовка, творческие способности, юридическое образование, преподаватель-ученик.

**Key words:** student, education, training, creative ability, legal education, teacher-student.

**Резюме:**

Mazkur maqolada oliy ta’lim tizimida zamonaviy talabarga javob beradigan yoshlarni tayyorlash va yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratilishi haqida batafsil ma’lumot berilgan.

**Резюме:**

В данной статье представлена подробная информация о подготовке молодежи, соответствующей современным требованиям, в системе высшего образования и предоставлении отличного образования молодежи, а также создании условий для развития инклюзивного образования в регионах.

**Summary:**

This article provides detailed information about the preparation of young people who meet modern requirements in the higher education system and the provision of excellent education for young people, as well as the creation of conditions for the development of inclusive education in the regions.

2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekiston “Taraqqiyot strategiyasi”ning “Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish” deb nomlangan to‘rtinchi ustuvor yo‘nalishining maqsadida: “Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta’limni ta’minlash, ta’limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta’lim olishini ta’minlash, hududlarda inklyuziv ta’lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish”[1] belgilangan bo‘lib, bu talabalarning kasbiy kompetentligini ta’minlashning institutsional asoslaridan biri sifatida ko‘rsatishimiz mumkin. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Aksariyat bitiruvchilarning bilim va

malakasi mehnat bozori talablariga javob bermayotganini ham tan olishimiz kerak. Mahalliy ta'lim muassasalarida innovatsion faoliyat hamda tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy yetish darajasi juda past"[2].

Shu sababli ham "Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi"da ko'rsatib o'tilganidek, "oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish"[3] kabi ustuvor vazifalar belgilangan.

Umuman ta'lim-tarbiya jarayoni o'zining ma'lum tushunchalari, rivojlanish va faoliyat tamoyillari, didaktik imkoniyatlari bilan doimiy munozaralarga sabab bo'ladi. Masalan, ta'lim deganda insonda ma'lum bilimlar, qarashlar va e'tiqodlar, axloqiy qadriyatlar, siyosiy yo'nalish va hayotga tayyorgarlik ko'rish maqsadida ijtimoiy institutlar tomonidan yo'naltirilgan ta'sir tushunilsa, tarbiyani ham ushbu tushunchalardan ayro holda ta'riflab bo'lmaydi. Ta'lim jarayoni va uning amaliy jihatlariga e'tibor qaratish ma'lum qoidalar, huquqiy-me'yoriy asoslariga ega bo'ladi. Huquqiy ta'lim - bu huquqiy madaniyat va faol huquqiy xulq-atvorni rivojlantirish maqsadida shaxsga maqsadli, doimiy ta'sir ko'rsatishdir. Huquqiy ta'limning asosiy maqsadi insonga hayotda zarur bo'lgan huquqiy bilimlarni berish va uni qonunlar va qoidalarni hurmat qilish va ularga rioya qilishga o'rgatishdir, ya'ni yetarli darajada yuqori huquqiy madaniyatni shakllantirishdan iborat.[4] Talabalarning amaliy kompetensiyasini shakllantirish o'zining kelajak kasbiy faoliyati va shogirdlarini kasbga yo'naltirishda, yosh avlodni jamiyatga ijtimoiylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bo'lajak mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorgarlik tizimi bevosita yoshlarning mehnat va kasb tarbiyasini kasbiy axborotlar, kasb tanlash, kasbga yo'naltirish ishlarini samarali amalga oshirish yetarlicha tarixiga ega bo'lib, xalqimizning millat, elat bo'lib shakllanishida jamoaviy mehnat, zaruriy kasblar, xunarlarini egallashida, turmush tarzining rivojlanishida o'z o'rniga ega bo'lgan. Ma'lumki, odamzod paydo bo'lishidan boshlab mehnat bilan shug'ullangan, turli turmush buyumlari yasagan yumushlar bajargan. Keyinchalik bu ustoz-shogird tamoyillari shakliga ko'cha borgan. Dastlab faqat kun kechirish uchun qilingan mehnat takomillashib kattaroq maqsadni, moddiy manfaat ko'rish uchun amalga oshirilib hatto, X asrlarda yirik harbiy qo'shinlarni, millionlab xalqlarni buyumlar, anjomlar bilan ta'minlay oladigan ishlab chiqarish sohalari darajasigacha taraqqiy etdi. Bundan tashqari, ushbu mutaxassislarning har biri aniq ma'lumotlar, o'ziga xos rivojlanish bosqichlariga ega, shuning uchun ular bu kasbga, sohaga oid faoliyatlarda ularga ma'lum bo'lgan usullar, muammoga



yondashish, idrok qilish va boshqalarga tayanib, ba'zi ulardagi atamalardan foydalanishda ziddiyatlarning kelib chiqishi holatlari kuzatilishi orqali kasbga yo'naltirish muammolar hal etilib borilgan. Bu ba'zi amaliy masalalarni tushunish borasida ham yakdillikning buzilishiga olib kelgan. Bu tafavvurlar faqatgina har bir hodisa, jarayonlarning hayotiy zarurati va mohiyati, amaliy jihatiga munosabat asosida yechim topadi.

Buning yagona sababi - kasbiy yo'nalish bilan bog'liq bilimlarning mazmuni bo'lib, kasbga yo'naltirish ishlarining tizimi va metodologiyasini ishlab chiqishdagi muvaffaqiyatli ishlarni davom ettirish muhimligi bilan asoslanadi.[5]

Sharqning buyuk mutafakkirlari, allomalari deyarli barcha davrlarda o'z asarlarida, she'r va g'azallarida, adabiy meroslarida halol mehnatni, kasb-hunar egallashni muqaddasligini va zarurligini ta'kidlab, ulug'lab o'tganlar. Ulug' bobokolonimiz Alisher Navoiy o'z g'azallarida yoshlarni ilmu hunar egallashga, X asrda yashab ijod etgan ulug' bobokolonimiz Abunavr Al - Forobiy ham kishilarni halol mehnat qilishga va kasb-hunar egallashga chaqiradi. Forobiyning fikricha, inson – “Ojiz banda”, “Hech narsaga qodir bo'lmagan mavjudot” emas, balki u eng oliy kamolot bo'lib “Aql-idrok ziyosiga ega, o'zi uchun zarur bo'lgan hamma narsani yaratishga qodir borliqdir”.[6] Forobiy mehnat va kasb - hunar ko'nikmalarini axloqiy fazilatlarini hosil qilish lozimligini ta'kidlab: “Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda, podshohlar ham o'zlari istab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy bir majburiyat bo'lib qolar edi. Kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lmas ekan, xalqlar va shahar ahllarida, odob-axloq, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilishi uch insondagi zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo'l bilan: ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar shaharlar o'rtasida nazariy fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir” degan edi. [7] Kasb-hunar egallashni ahamiyati to'g'risida qomusiy olim Abu Ali Ibn Sino (980-1037)ning asarlarida ham bolaga yoshligidan biror kasb-hunarni o'rgatish lozimligi, so'ngra o'z kasb-hunaridan hayotda foydalanish, yani halol mehnat bilan mustaqil hayot kechirishga o'rgatish kerakligi xususida “Yoshlarga ilm bera borib, ularga hunar o'rgatmok muhim ma'suliyatli ishdir. Hunar o'rganish birla yoshlar har qanday nojuya hatti-harakatlardan xoli bo'ladilar”[8] deb ta'kidlaydi.

Insoniyat tarixiy taraqqiyotida Sharqu - G'arbda ham yoshlarni kasb-hunar egallashlariga alohida e'tibor bilan qaralgan. Ularni kasb-hunar egallashlariga otalik, ustozlik maslahatlarini, yo'l-yo'riqlarini muntazam berib kelganlar. Rasman kasbga oid maslahat idoralari asrimiz boshlarida paydo



bo'la boshlagan. Mazkur ma'lumotlarga asoslanib kasbga yo'naltirish ishlari qadimdan shakllanib kelganligini, jamiyat taraqqiyotning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda rivojlanib borganligini xulosa qilish mumkin.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2022-2026 - yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli farmoni. 2022-yil 28-yanvar. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O'qituvchi va murabbiylarga yo'llagan tabrigi. 2020-yil 30-sentabr. <https://president.uz/uz/lists/view/5569>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni. 2019-yil 8-oktabr. <https://lex.uz/docs/4545884>
4. Karimova O. "Huquqshunoslik" va "Konstitutsiyaviy huquq" fanlarini o'qitish muammolari // Xalq ta'limi. – 2006. – №4. – B. 46 – 49
5. Murtazayev M., Doniyorova Sh. Texnologiya ta'limi bo'yicha hunarmandchilik sohasini milliylik asosida amaliy o'rgatish asoslari, Fiziko-texnologichesko obrazovaniye: Tom 4 № 4 (2021): Journal of Physics and Technology Education.
6. M.Xayrullayev "Farobiy" T.: 1983 y. 83 b.
7. Xayrullayev M. M. O'rta Osiyoda ilk uygonish davri madaniyati, T., 1994;
8. Rahmatulloh Sayfuddinov. "Halol kasb – farovonlik omili". Movarounnahr. Toshkent – 2013.
9. Joldasov I.S. "Elektron ta'lim muhitida ta'lim oluvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish imkoniyatlari" Муғаллим ҳәм үзликсиз билимлендириў. Илимий-методикалық журнал. 2024 5/3-сан. oktabr.